O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA MEHNAT BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Turg‘unmirzayev Azmiddin Shamsitdin o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
A.Turgunmirzayev@kiut.uz

Annotatsiya. *Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mehnat bozori tarkibi, bandlik shakllari, kasbiy kompetensiyalarga bo‘lgan talab hamda ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishiga olib kelmoqda. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mehnat bozorini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va ularni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yoritishdan iborat. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv va mehnat bozori rivojlanishining asosiy tendensiyalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida raqamlashtirish sharoitida mehnat bozorining samaradorligini oshirishda raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni mehnat bozori talablariga moslashtirish, masofaviy va platforma asosidagi bandlik shakllarini institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mehnat bozori infratuzilmasini raqamlashtirish hamda mehnat resurslari haqidagi axborot tizimlarini takomillashtirish muhim yo‘nalishlar sifatida asoslandi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan bir qatorda ayrim kasblarga bo‘lgan talabning qisqarishi ehtimolini hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligi ko‘rsatildi. Taklif etilgan yondashuvlar O‘zbekistonda zamonaviy, moslashuvchan va raqamli mehnat bozorini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori, raqamli transformatsiya, bandlik, raqamli ko‘nikmalar, mehnat resurslari, masofaviy bandlik, platforma bandligi, kasbiy kompetensiya, mehnat bozori infratuzilmasi.*

Аннотация. *Стремительное развитие цифровой экономики приводит к изменениям в структуре рынка труда, формах занятости, требованиях к профессиональным компетенциям, а также во взаимоотношениях между работодателями и работниками. Цель исследования заключается в определении приоритетных направлений совершенствования рынка труда в*

Узбекистане в условиях перехода к цифровой экономике и раскрытии организационно-экономических основ их реализации. В исследовании использованы методы системного и сравнительного анализа, институциональный подход, а также обобщение основных тенденций развития рынка труда. В результате исследования обосновано, что важными направлениями повышения эффективности рынка труда в условиях цифровизации являются развитие цифровых навыков, адаптация профессиональной подготовки к требованиям рынка труда, институциональная поддержка дистанционной и платформенной занятости, цифровизация инфраструктуры рынка труда и совершенствование информационных систем о трудовых ресурсах. Кроме того, показана необходимость развития механизмов переподготовки и повышения квалификации с учётом не только создания новых рабочих мест в процессе цифровой трансформации, но и возможного снижения спроса на отдельные профессии. Предложенные подходы могут способствовать формированию современного, гибкого и цифрового рынка труда в Узбекистане.

Ключевые слова: *цифровая экономика, рынок труда, цифровая трансформация, занятость, цифровые навыки, трудовые ресурсы, дистанционная занятость, платформенная занятость, профессиональная компетентность, инфраструктура рынка труда.*

Abstract. *The rapid development of the digital economy is transforming the structure of the labor market, forms of employment, demand for professional competencies, and relations between employers and workers. The purpose of this study is to identify priority directions for improving the labor market in Uzbekistan under the transition to a digital economy and to clarify the organizational and economic foundations for their implementation. The study applies systematic and comparative analysis, an institutional approach, and a synthesis of major labor market development trends. The findings substantiate that the development of digital skills, alignment of vocational training with labor market demand, institutional support for remote and platform-based employment, digitalization of labor market infrastructure, and improvement of information systems on labor resources are important directions for enhancing labor market efficiency in the context of digitalization. The study also highlights the need to develop retraining and upskilling mechanisms, taking into account not only the creation of new jobs through digital transformation but also the potential decline in demand for certain*

occupations. The proposed approaches may contribute to the formation of a modern, flexible, and digitally oriented labor market in Uzbekistan.

Keywords: *digital economy, labor market, digital transformation, employment, digital skills, labor resources, remote employment, platform employment, professional competence, labor market infrastructure.*

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta’minlash bo‘yicha yangi taosirchan mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2021 yil 28 aprelda “2021 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida” PQ-5094-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, “barcha uchun ish” tamoyili asosida quyidagilarni nazarda tutuvchi “Mening ishim” buyurtmalar birjasi onlayn-maydonini ishga tushirish ko‘zda tutilgan:

- ishsizlar, ayniqsa, ayollar, yoshlar, talabalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ishlar, masofadan turib bajariladigan ishlar, uyda bajariladigan ishlar, kasanachilik ishlari, frilanserlik faoliyati, ish grafiklari, talab etiladigan malaka darajasi, ish haqi miqdori va boshqalarni aks ettirish;
- o‘z-o‘zini band qilgan shaxslarning faoliyat turlari hamda ularga ehtiyoji bor bo‘lgan ish beruvchilar to‘g‘risida ma’lumot olish;
- o‘z-o‘zini band qilgan shaxslar va ularning xizmatiga ehtiyoji bor ish beruvchilar o‘rtasida kunlik va uzoq muddatli oferta shartnomasi tuzish va boshqalar.

Mehnat bozorida hozirgi davrda ish bilan bandlikda bir qancha o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bu esa ko‘p jihatdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi va ilm-fan taraqqiyotining natijasida kelib chiqqan raqamli inqilob bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Raqamli inqilob barcha soha va tarmoqlarni raqamlashtirish orqali mehnat bozori va globallashuvga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Endilikda bir qancha kasblarning yo‘qolib borishi natijasida ishsizlar sonining ortishi bilan bir paytda yangi kasblar va ish o‘rinlari paydo bo‘ldi hamda raqamli va axborot texnologiyalardan samarali foydalanish yordamida ishsizlik muammolarini hal qilish yanada osonlashdi va ko‘plab qulayliklar yaratildi.

Raqamli iqtisodiyot yuqori darajada rivojlangan davlatlarda mehnat resurslarining katta qismi asosan raqamli texnologiyalar va IT-sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan,

2025-yilda AQShda raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq mehnat resurslarining ko‘lami sezilarli darajada yuqori bo‘lib qoldi. AQSh Mehnat statistikasi byurosi (Bureau of Labor Statistics — BLS) ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil may oyida mamlakatda kompyuter kasblarida 4 mln 827,7 ming kishi, kompyuter va matematik kasblar guruhida esa 5 mln 260,1 ming kishi band bo‘lgan. Shu bilan birga, AQSh Census Bureau ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda chakana elektron tijorat savdosi 1,233,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, jami chakana savdoning 16,4 foiziga teng bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkichlar raqamli texnologiyalar va elektron tijoratning AQSh mehnat bozori hamda iqtisodiy faoliyatidagi ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunda iqtisodiyotning deyarli barcha asosiy tarmoqlarida tarkibiy va texnologik o‘zgarishlarni jadallashtirmoqda. 2025-yilgi UN Trade and Development (UNCTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot kelgusi o‘n yillikda yangi qiymat yaratilishining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ini ta’minlashi va yiliga 10–12 foiz sur’atda kengayishi kutilmoqda. Mazkur tendensiya raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo, moliya va mehnat bozori kabi sohalardagi iqtisodiy jarayonlarni tobora chuqurroq o‘zgartirayotganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi kabi ijobiy o‘zgarishlarni yaxshi anglagan holda hukumatimiz tomonidan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi bandligini oshirish borasida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ishsiz bo‘lgan aholini ish bilan ta’minlash, axborot va raqamli savodxonlikni oshirish hamda mehnat bozorida vujudga kelayotgan yangi kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida hududlar kesimida “Raqamli texnologiyalar” o‘quv markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu markazlarda tahsil olish orqali bir tomondan, yoshlar o‘rtasida zamonaviy raqamli texnologiyalar, dasturlash, robototexnika kabilarni rivojlantirish va o‘rgatish, ikkinchi tomondan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbar hamda xodimlarining malakasini oshirish va yangi kasblar bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish maqsad qilingan.

Bizga ma’lumki, O‘zbekistonda mehnat bozorining rivojlanishida yoshlar salohiyati muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 630 556 kishini, ya’ni mamlakat jami aholisining 25,7 foizini tashkil etgan. Bu yoshlarning mamlakat mehnat resurslarini shakllantirish, zamonaviy kasblarni

egallash va raqamli iqtisodiyot talablariga moslashish salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Yoshlar bandligi va tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida 2025-yil 14-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-62-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan “Yoshlar biznesi” dasturini amalga oshirish, 350 ming yoshni qamrab olish hamda 100 mingtagacha qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish belgilangan. Dastur doirasida yoshlarning zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, startap va investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, raqamli texnologiyalar joriy etilgan innovatsion loyihalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

2025-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatda 9,3 mln nafar yosh bo‘yicha “yoshlar balansi” shakllantirilib, ularning bandligi va individual rivojlanishiga yo‘naltirilgan manzilli choralar amalga oshirilgan. “Yoshlar bandligi dasturi” doirasida ish izlayotgan yoki biznes boshlash istagidagi 384,4 ming yoshni qo‘llab-quvvatlash rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 354,1 ming nafar, ya’ni 92 foiz yoshning bandligi ta’minlangan.

Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘nalishida ham sezilarli natijalar qayd etildi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha “Bir million o‘zbek dasturchi” loyihasi doirasida 1 million nafardan ortiq o‘quvchi axborot texnologiyalari kurslarida tahsil olib, IT sertifikatlarini qo‘lga kiritgan, AT kasblarini egallagan 20 mingdan ortiq o‘quvchi esa daromad keltiruvchi faoliyatga jalb etilgan. 2025-yil oxiridan boshlab ushbu yo‘nalish “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi bilan yangi bosqichga olib chiqildi.

Buning hisobiga yoshlarning yangi, zamonaviy kasblarga oid startup, o‘zini-o‘zi band qilish borasidagi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning erkin, ijodiy fikrlashi uchun innovatsion muhit yaratish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsad qilingan.

Raqamli iqtisodiyotda robototexnika, sun’iy intellekt, 3D-texnologiyalari kabi raqamli texnologiyalar orqali ish joylari avtomatlashtirilmoqda va ishlab chiqarish tubdan takomillashtirilmoqda, buning natijasida mehnat unumdorligi keskin ortishi bilan birga, ushbu jarayonlar butun jahon mehnat bozoriga kuchli taosir ko‘rsatmoqda. Tadqiqodlarga ko‘ra, raqamli texnologiyalar yaqin 20 yil ichida hozirgi paytda ishlab chiqarishda xodimlar ishtirokida bajarilayotgan operatsiyalarning 50 foizga yaqinini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida ish o‘rinlari sonining qisqarishiga, ishsizlar sonining ortishiga olib keladi.

Ayniqsa, o‘rta ma’lumotli ishchi xodimlarga bo‘lgan talab yildan-yilga kamayib boradi. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarining ishlab chiqarishga keng joriy etilishi axborot va raqamli savodxonligi hamda ilmiy salohiyati yuqori, zamonaviy bilim va malakaga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarga bo‘lgan talab ortadi. Endilikda barcha soha va tarmoqlarning raqamlashtirilishi natijasida raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yuritishga qodir raqamli mutaxassis kadrlar avlodini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida vujudga kelayotgan ishsizlik muammolarini bartaraf qilishda uning samarali jihatlaridan foydalanish jumladan, raqamli texnologiyalar o‘z navbatida mehnat bozoriga ijobiy taosir ko‘rsatishini hisobga olish lozim. Raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga ta’siri yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar so‘nggi 15 yil mobaynida internetning rivojlanishi jahonda yuqori malaka talab qilmaydigan 500 ming ta ish joyi yo‘qotilgani holda, shu davrning o‘zida 1,2 mlnga yangi, yuqori raqamli texnologiyalarga asoslangan ish joylari yaratilganligini ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar avval mehnat bozorida mavjud bo‘lmagan kasb va mutaxassisliklarni ham vujudga kelishiga olib keladi. Xususan, raqamli marketing, kraudsorsing, on-demand professional servicyes, vebmarketer, ergonomist, veb-dizayner, kontekstli reklama menejeri, veb-dasturchi kabilar shular jumlasidan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishchi xodimlar uchun eng muhimi axborot texnologiyalarini egallash hisoblanadi. Ushbu texnologiyalarni faqat tor mutaxassislargina emas, turli kasbdagi barcha xodimlar egallashi zarurati tug‘ilmoqda. Hozirgi vaqtga kelib rivojlangan davlatlarning kompaniyalarida mehnat funksiyalarini bajarishda internet texnologiyalaridan tobora keng foydalanilmoqda. Misol uchun Germaniyada xodimlarning 80 foizi raqamli texnologiyalarni egallagan bo‘lib, yuqori raqamli savodxonlikka ega. Bu yangi raqamli texnologiyalar va ular bilan bog‘liq axborot va kommunikativ tarmoqlardan samarali foydalanishni anglatadi.

Raqamli va axborot texnologiyalardan foydalanishning eng afzal jihatlaridan biri shuki, bu texnologiyalardan foydalangan holda katta hajmli axborotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash mumkin. Buning natijasida eng qisqa vaqt ichida ish topish, vaqti va joyidan qatoiy nazar ish faoliyati bilan bevosita (onlayn) shug‘ullanish, qo‘shimcha daromad olish uchun ham imkoniyat yaratiladi. Onlayn ish joylari mehnat jarayoniga qo‘shimcha ravishda nogironlar, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan ayollar, talaba yoshlarni jalb etish orqali ish bilan bandlikni rivojlantirish, mehnat bozorini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda

ishchi kuchi ortiqcha bo‘lgan mintaqalardagi aholi boshqa joyda, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar ish beruvchilari bilan shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mamlakatimiz mehnat bozorida raqamli iqtisodiyot sharoitida vujudga kelayotgan raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy kasblar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish birinchidan, yuqori darajada rivojlangan raqamli infratuzilmani talab qilsa, ikkinchi tomonda bu kasblarning keng tarqalishi hamda soha rivoji uchun malakali mutaxassis kadrlarga ehtiyoj sezadi. Bu muammolarni hal qilishda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, mamlakat miqyosida internet aloqa xizmatlarini yaxshilash, ta’limning barcha bosqichlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlash, ishchi xodimlarning mehnat bozoridagi mobilligini oshirish va shu kabilar yuzasidan mamlakatimizda qator islohotlar olib borilmoqda.

Biz yuqoridagi islohotlarga qo‘shimcha ravishda, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnatga layoqatli aholining ish bilan samarali bandligi darajasini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taklif qilamiz:

- Zamon talablaridan kelib chiqib mehnat bozorini takomillashtirish;
- Mehnatga layoqatli aholining yangi kasblar bo‘yicha ko‘nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirib borish orqali mehnat bozoridagi konyukturani yaxshilash;
- Aholining ish bilan bandligini ta’minlash xizmatlari o‘rtasida raqobat muhitini yaratish;
- Soha va tarmoqlarni raqamlashtirish bilan birga mavjud ish o‘rinlarining saqlanishini ta’minlash;
- Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini avtomatlashtirishda ishchi xodimlarning malaka ko‘nikmalarini mutanosib ravishda oshirib borish;
- Malakali xodimlar va mutaxassislar tayyorlash tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalari ustuvorliklarini hisobga olgan holda takomillashtirish;

Ishsizlik muammosini bir muncha bartaraf qilish maqsadida yangi kasblar bo‘yicha qayta tayyorlov o‘quv kurslarini tashkil qilish asosida qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish va boshqalar.

Hozirgi davrda global iqtisodiyotni rivojlanishi xarakteri ijtimoiy- iqtisodiyot hayotni raqamlashtirish jarayoni bilan, xususan, insoniyatning barcha-barcha hayotiy faoliyatiga turli-tuman axborot-kompg‘yuter texnikalari, texnologiyalar, internet tarmog‘i va boshqa vertual texnologiyalarni kirib kelishi bilan chambarchas bog‘liq. Bu holat ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalari singari mehnat bozorining amal qilish tartibiga ham o‘z tahsirini o‘tkazmoqda . Xususan, ushbu

bozorda bandlikning masofaviy shakllarini kirib kelishi uning imkoniyatlari, xususiy va davlat bandlik xizmatlarini internet tizimi orqali amalga oshirilishi, moliyaviy xizmatlarni virtuallashuvi va hokazolar tahsirida jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy- iqtisodiy aloqalar va o‘zaro hamkorliklar xarakterini o‘zgartirib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyotni qaror topishi bu nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyot yoki jamiyatning tabiiy evolyusiyasi natijasi, balki jahon iqtisodiyotida “yetakchi” mamlakatlarning davlat boshqaruv tizimidagi “raqamlashtirish” dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirishi bilan bog‘liqdir. Yetakchi mamlakatlar birinchi navbatda mehnat bozorini raqamlashtirishga e’tiborini qaratishmoqda, chunki iqtisodiyotni raqamlashtirish ishchi kuchining miqdoriy va sifatiy tarkibiga qo‘yilgan talabni aniqlab, unga bo‘lgan talab va taklifni tartibga solib turadi. Demak, raqamlashtirish sharoitida mehnat bozori ishchi va xizmatchilarni talab va taklifini tartibga soluvchi institut bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni raqamlashtirishning mehnat bozoriga tahsiri masalasida tatqiqotchi olimlarning nuqtai nazari turlicha bo‘lib, ular ushbu jarayonni mehnat bozori uchun ijobiy va salbiy oqibatlarini ajratib ko‘rsatishadi.

Mehnat va texnologiya, bandlik va investitsion faollikning iqtisodiy dinamikasini tushuntirish nuqtai nazaridan o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro tahsiriga zamonaviy iqtisodiy nazariyaning Keynschilik yo‘nalishi namoyondalari ko‘proq e’tibor qaratishgan. Xususan, J.M.Keyns o‘zining nazariyasida yangi sanoat inqilobi, yahni mashinalashgan ishlab chiqarishning kengayishi oqibatida texnologik ishsizlikni keng qo‘llashda avj olishini ehtirof etgan. Keynschilik yo‘nalishi vakillari bo‘lmish K.Shvab, Florian A.Smidlar o‘z asarlarida ishlab chiqarish va mehnatning texnologik o‘zgarishini ifodalab beruvchi omil axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ekanligini raqamlashgan mehnat bozori alohida raqamli iqtisodiyot segmenti sifatida amal qilishi xususiyatlarini ochib berishga e’tibor qaratishgan .

Mehnat bozoridagi “raqamli” segmentni baholashda mehnat huquqlarini mavjudligi, ularga amal qilinishi, ish bilan bandlarning ijtimoiy tahminlanishi kabi holatlar iqtisodiyotdagi innovatsion o‘zgarishlar davrida yo‘qolib borishi mumkin. Bundan tashqari, jahondagi ekspert agentliklari fikriga ko‘ra, ish o‘rinlarini “raqamlashtirish” natijasida 47% ish o‘rinlarini kompyuter dasturalar va robotlar egallaydi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar va robotlashtirish natijasida yaqin besh yilda 5 mln. ish o‘rinlari yo‘qolib boradi .

Fikrimizcha, bu holat mehnat bozorida o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tanglikni keltirib chiqaradi. Bunday negativ holatlar jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- ish o‘rinlarini qisqarishi, jonli mehnatni mashinalar, robotlar tomonidan siqib chiqarilish;
- internet-shaxs va internetsiz-shaxs o‘rtasida raqamli tafovutni kuchayishi;
- bandlik, daromadlar bo‘yicha ishchi kuchini tabaqalanishini kuchayishini, “raqamli” tengsizlikni kuchayishi, raqamli texnologiyalarga kirish huquqi mezoni bo‘yicha ijtimoiy holatni tabaqalanishi;
- avtomatlashtirish, robotlashtirishni kuchayishi, sunhiy intellekt tizimini joriy etilishi natijasida texnologik ishsizlikni o‘sishi;
- ishchi va xizmatchilarni ijtimoiy kafolatlarni susayishi ijtimoiy himoya tizimini pasayishi;
- mehnat bozori, ishchi kuchiga talab sig‘imini pasayishi;
- mehnat bozorini prognozlashtirish va raqamlashtirishni murakkablashuvi va boshqalar.

Ammo yuqorida ehtirof etilgan salbiy holatlar bilan birgalikda raqamlashtirishning ijobiy jihatlari ham bo‘lib, bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehnat unumdorligini o‘sishi, ish vaqtini qisqarishi;
- yuqori malakali va past malakali ishchi-xodimlarning ish haqi darajasini bir xilda oshishi;
- yuqori malakali mehnatga talab o‘sishi natijasida kadrlarning kvalifikatsiyasi va malaka darajasini oshishi;
- mehnat sharoiti yaxshi bo‘lgan yangi ish o‘rinlarini yaratish, yangi kasblarni paydo bo‘lishi;
- ish o‘rinlarini egiluvchanligini o‘sishi, nostandart bandlikni kengayishi va uning asosida mehnat bozorida transaksion xarajatlarni kamayishi;
- ish o‘rnini qidirishga sarflanadigan vaqtni qisqarishi va boshqalar.

Mehnat bozorini raqamlashtirish natijasida vujudga keladigan ijobiy va salbiy holatlarni tahlil etish asosida xulosa qilishimiz mumkinki, mehnat bozorida paydo bo‘ladigan har bir salbiy holatni bartaraf etuvchi ijobiy holatlar vujudga keladi hamda ularni uzoq vaqt davomida amal qilishi oqibatida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subhyektlarning mehnat sharoiti, ko‘nikmasi, turmush darajasi hamda sifati yaxshilanib boradi.

Mehnat bozorida “raqamlashtirish” segmentlarini tobora to‘liqroq amal qilib borishi bilan mehnat munosabatlarining tabiati ham o‘zgarib, murakkablashib boradi . Xususan, mehnat munosabatlari subhyektlari ishchi va ish beruvchilarning faoliyatida tavakkalchilikni (riskni) kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda xavf, tavakkalchilikni bilim natijasi haqidagi axborotlarni, mahlumotlarni yetishmovchiligi oqibatida shakllanadi deb ehtirof etishadi. Bizning fikrimizcha, tavakkalchilik (xavf) bu xo‘jalik yurituvchi subhyektlar faoliyatida iqtisodiy yo‘qotishlarni yuzaga kelishi ehtimolidir. Iqtisodiy yo‘qotishlar yoki xarajatlar subhyekt maqsadidan qanchalik farq qilsa, tavakkalchilik (xavf) shunchalik yuqori bo‘ladi.

Mehnat munosabatlarida xodim va ish beruvchilarning tavakkalchiliklari subhyektlarning hatti-xarakatlarini dastlabki taxmin qilinganidan farq qilishga bog‘liq. Sub’yektlarning u yoki bu turdagi hatti- xarakatlarining barqarorligi yoki maqsadga muvofiqligi mehnat sohasida amal qiladigan me’yorlar, qoidalar, an’analarga bog‘liq.

Mehnat bozorida xavfni, tavakkalchilikni ichki va tashqi turlari amal qiladi. Tashqi xavf, tavakkalchilikni siyosiy, iqtisodiy, tabiiy-iqlim, ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, bozor turlariga ajratish mumkin. Ularning barchasi mehnat bozorida uning ishtirokchilariga, yahni ishchi va ish beruvchilarning faoliyatiga o‘zining ijobiy yoki salbiy tahsirini o‘tkazadi.

Ichki xavf yoki tavakkalchilik korxona, tashkilot yoki firma ichidagi mehnat bozorining (mehnat munosabatlarining) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy sharoitlar va jarayonlarning noaniqligidan kelib chiqadi. Xususan, favqulotda vaziyatlarning mavjudligi, yetkazib berishdagi uzilishlar, shartnoma shartlarini buzilishi, moddiy rag‘batlantirish tizimining samarasizligi, xodimlar bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarning samaradorligini xayotligi va hokazolar ichki xavf (tavakkalchilikni) darajasini oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2009. — 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi qonuniga sharhlar. — Toshkent: Sharq, 2000. — 384 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. — Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016. — 56 b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak: mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va

2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — 104 b.

5. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — 488 b.

6. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. — Toshkent: Mehnat, 2009. — 763 b.

7. Abdurahmonov Q. X., Xolmo‘minov Sh. R., Zokirova N. Q. Personalni boshqarish: darslik. — Toshkent: O‘qituvchi, 2008. — 652 b.

8. Bulanov I. S., Volgin R. A. Rynok truda: uchebnik. — Moskva: Ekzamen, 2007. — 479 s.

9. Mumladze R. G. Ekonomika i sotsiologiya truda: uchebnik. — Moskva: KNORUS, 2007. — 328 s.

10. Kibanov A. Ya. Ekonomika i sotsiologiya truda: uchebnik. — Moskva: INFRA-M, 2010. — 548 s.

11. Genkin B. M. Ekonomika i sotsiologiya truda: uchebnik dlya vuzov. — 3-e izd., dop. — Moskva: NORMA, 2007. — 448 s.

12. Odegov Yu. G. Ekonomika truda: uchebnik. B 2 t. T. 1. — Moskva: Alfa-Press, 2007. — 760 s.

13. Odegov Yu. G. Ekonomika truda: uchebnik. B 2 t. T. 2. — Moskva: Alfa-Press, 2007. — 924 s.

14. Zaynutdinov Sh. N., Nurimbetov R. I. Personalni boshqarish: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Yangiyul poligraf service, 2007. — 320 b.

15. Slezinger G. E. Trud v usloviyax rynochnoy ekonomiki: uchebnoye posobiye. — Moskva: INFRA-M, 2007. — 336 s.

16. Abdurahmonov Q. X., Imomov V. O‘zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. — Toshkent: Akademiya, 2008.

17. Zokirova N. K. Sotsialno-trudovye otnosheniya: mezhdunarodnye i natsionalnye aspekty. — Toshkent: Fan, 2008. — 95 s.

18. Abulqosimov H. P. va boshqalar. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish. — Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. — 236–237, 240 b.

19. Ryazantsev S. V. Trudovaya migratsiya v SNG i Baltii: tendensii, posledstviya, regulirovaniye. — Moskva: Formula prava, 2007. — 147 s.

20. Xodiyev B. Yu. va boshq. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: TDIU, 2010. — 267 b.

21. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. O‘zbekistonda kasanachilik: tashkil etish imkoniyati va rivojlanish tajribasi (qonunchilik va amaliyot): o‘quv-uslubiy qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, 2008. — 123 b.

22. Турғунмирзаев А. Новые проявления конкуренции в сфере страховых услуг: теория и практика // Экономическое развитие и анализ. — 2025. — Vol. 3, № 2. — P. 368–376.

23. Турғунмирзаев А. Цифровизация страхового рынка как фактор повышения его конкурентоспособности // Передовая экономика и педагогические технологии. — 2025. — Vol. 2, № 1. — P. 289–297.

24. Тургунимирзаев А. Направления стратегии развития страховых компаний в цифровой экономике // Экономическое развитие и анализ. — 2025. — Vol. 3, № 1. — P. 439–446.

25. Турғунмирзаев А., Шамситдинов М. Суғурта компаниялари рақобатбардошлигини бошқаришда рақамли иқтисодиётнинг ўрни // Nashrlar. — 2023. — P. 238–241.

26. Turgunmirzaev A. Developing Forms of Competition in the Insurance Field: Theory and Practical Aspects // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. — 2025. — Vol. 6, № 3. — P. 1083–1090.

27. Statistik to‘plamlar ma’lumotlari.

28. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari.

29. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. [Elektron resurs]. gov.uz

30. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. [Elektron resurs].

31. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi. [Elektron resurs].

32. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — LexUZ. [Elektron resurs]. LexUZ

33. O‘zbekiston Respublikasi Statistika bo‘yicha davlat qo‘mitasi. [Elektron resurs].

34. Ekonomika Rossii. [Elektron resurs].